ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc. 03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAHIMOVA MADINA SHUHRAT QIZI

TRANFORMATSIYALASHAYOTGAN IQTISODIYOT SHAROITIDA SHAHARLARNI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12–Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2025

UDK: 332.1:325.111-048.32(575.152)

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical sciences

Rahimova Madina Shuhrat qizi
Transformatsiyalashayotgan iqtisodiyot sharoitida shaharlarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida) 3

Рахимова Мадина Шухрат кизи
Совершенствование системы городского развития в условиях трансформирующейся экономики (на примере Кашкадарьинской области)……...33

Rahimova Madina Shuhrat kizi
Improving the urban development system under the conditions of a transforming economy (on the example of the Kashkadarya region) 65

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works …….....69

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI-URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc. 03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RAHIMOVA MADINA SHUHRAT QIZI

TRANFORMATSIYALASHAYOTGAN IQTISODIYOT SHAROITIDA SHAHARLARNI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

08.00.12–Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Urganch – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3584 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qdtu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Erkayeva Gulbahor Panjiyevna** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentla:	**Ruzmetov Baxtiyor** iqtisodiyot fanlar doktori, professor
	Mullaboyev Baxtiyorjon Bulturbayevich iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Temiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “____”_____soat _____:_____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil 220100, Urganch sh., H.Olimjon ko‘chasi 14-uy. Tel.: (998-62) 224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: info@urdu.uz.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch sh., H. Olimjon ko‘chasi 14-uy. Tel.: (998-62)224-67-00; faks: (998-62)224-57-00; e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___”_____kuni tarqatildi.

(2025-yil “____” _____ dagi №_____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo aholisining yarmidan ko‘pi shaharlarda istiqomat qiladi. Agar 1800-yilda dunyo aholisining faqat 2,0 foizi, 1950-yilda 30 foizi shaharda yashagan bo‘lsa 2050-yilga borib bu raqam 68 foizga oshishi kutilmoqda[1]. Ma’lumotlarga ko‘ra, har kuni shaharga 180 ming kishi ko‘chib o‘tmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich har kuni 60 mln.kishini tashkil qiladi. Hozirgi paytda Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi va Karib dengizi, Yevropa va Okeaniya mintaqalarida urbanizatsiya darajasi eng yuqori hisoblanadi. Osiyoda bu ko‘rsatkich 50 foizdan oshmaydi, Afrika aholisining 43 foizi shaharlarda yashaydi.

Jahonda urbanizatsiya jarayonlari jadallashgani sari shaharlarning iqtisodiy o‘sish dvigateli sifatidagi ahamiyati ortib bormoqda. Bugungi transformatsiyalashayotgan iqtisodiyot sharoitida aholining shaharlarda jamlanishi iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga turtki bo‘lmoqda, jahon YaIMning 80 foizdan ko‘prog‘i shaharlarda yaratilishi tufayli, millionlab kishilarni kambag‘allik sirtmog‘idan chiqishiga ko‘maklashmoqda. Biroq, aholi daromadlari orasidagi farqlarning kuchayishi, atrof-muhit holatining yomonlashuvi kabilar urbanizatsiya jarayonlarini tezlashuvi va miqyosining kengayishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muammolardan hisoblanadi. Shuni inobatga olib shaharlarni rejalashtirish, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish asosida hududlarni rivojlantirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoniga[2] asosan urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan. Bu esa chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo qilib, shahar iqtisodiyoti tarkibida ustuvorlik jihatdan xizmatlar sohasining ulushini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni talab etadi. O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yil ichida shahar va qishloq aholisi soni 20,7 foizga o‘sgan, bu davrda mamlakatda urbanizatsiya darajasi 50-51 foiz orasida saqlanib turgan. O‘zbekiston shaharlarida xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining ulushi hududlar kesimida Toshkent shahri bilan qiyoslaganda sust rivojlanmoqda. Jumladan, xizmatlar tarmog‘i YaIMga qo‘shilgan qiymatining 1/5 qismidan ortig‘i Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri keladi. Mamlakat bo‘yicha jami shahar aholisining 16 foizdan ortig‘i Toshkent shahrida doimiy ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, bu raqamlar tarkibiy o‘zgarishlar orqali hududlarda urbanizatsiya darajasini oshirish zaruratidan dalolat beradi.

Mamlakat hududlari kesimida qaralsa, Toshkent shahridan keyingi o‘rinlarda Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari urbanizatsiya darajasi yuqori rivojlangan hududlar hisoblanadi Qashqadaryo viloyati shaharlarida istiqomat qiluvchi aholining ulushi 43 foizga yetmaydi. Qashqadaryoda 2019-2023-yillarda urbanizatsiya darajasi yildan-yilga pasayib borgan. Bu davrda viloyat YaHMning mamlakat YaIMdagi ulushi kamayib 6,0 foizdan 5,5 foizga pasaygan. Shuningdek, Bu davrda O‘zbekiston iqtisodiyoti tarkibida qishloq xo‘jaligining ulushi 2,3 foizga qisqargan bo‘lsa-da,

[1] https://www.worldbank.org/en/topic/urbandevelopment/overview

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.

viloyat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ustuvorlik qilib, tarmoqning YaHMdagi ulushi 2019-yilgi 41,1 foizdan 2023-yilda 41,9 foizga ortgan. Mazkur tahlillar Qashqadaryo viloyatida shaharlarni iqtisodiy rivojlantirish va rejalashtirishdagi muammolarni ko‘rsatib, viloyatda shaharlarni rejalashtirish tizimini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etishning dolzarbligini asoslaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5623-sonli Farmoni[3], 2024-yil

8-iyuldagi “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-245-sonli qarori[4], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[5] 83-sonli qarori, 2019-yil 18-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 48-sonli qarori[6] hamda mintaqalarda urbanizatsiyani rivojlantirishga qaratilgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Transformatsiyalashayotgan iqtisodiyot sharoitida shaharlarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish masalalari urbanizatsiya va iqtisodiy rejalashtirish sohasidagi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Xususan, P.Hall va M.Tewdwr-Jones[7] tomonidan shahar va mintaqaviy rejalashtirishning nazariy va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilinib, rejalashtirish tizimining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlari o‘rganilgan. D.Harvey[8] esa shaharlarni iqtisodiy transformatsiyalar kontekstida rivojlantirish va kapital aylanishining hududiy ta’sirlarini tahlil qilgan. Urbanizatsiyaning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni bo‘yicha T.Mogi[9] ijodiy iqtisodiyot konsepsiyasini taklif etib, innovatsion va ijodiy sektorlarning shahar rivojlanishiga qo‘shgan hissasini ko‘rsatib bergan. Bundan

---

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.01.2019-yildagi “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5623-son Farmoni.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.07.2024-yildagi “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-245-sonli qarori

[5] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022-yildagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 83-son qarori.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasida “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 48-son qarori.

[7] Hall P., Tewdwr-Jones M. Urban and regional planning. – Routledge, 2019.

[8] Harvey D. Rebel cities: from the right to the city to the urban revolution. – 2012.

[9] Mogi T. Richard Florida, The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life, Basic Books, New York, 2002 //Journal of Cultural Economics. – 2003. – V.3. – №.4. –P.87-89.

tashqari, A.Scott va E.Storper[10] aglomeratsiyalar va hududiy klasterlar iqtisodiyotining rivojlanish omillarini o‘rgangan.

MDH davlatlari miqyosida shaharlarni iqtisodiy rejalashtirish va urbanizatsiya masalalari bo‘yicha V.Glazchev, A.Oborin va M.Sheresheva[11] kabi olimlar tomonidan qator muhim tadqiqotlar olib borilgan. Ular shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, ekologik barqarorlikni saqlash yo‘llari va kichik shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik rejalashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borishgan.

Transformatsiyalashayotgan iqtisodiyot sharoitida hududlarni rivojlantirish masalasida O‘zbekistonlik olimlardan S.Zokirov, O.Ata-Mirzayev, T.M.Axmedov, B.Ro‘zmetov, A.Saliyev, U.Sultonov, M.Egamberdiyeva[12] va boshqalarning ilmiy ishlarida ham keng yoritib berilgan.

Shu bilan birga, Qashqadaryo viloyati sharoitida shaharlarni rejalashtirish tizimini takomillashtirish, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetarli emas. Ushbu mavzu o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda, tadqiqotning maqsad va vazifalarini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari muhim ilmiy-uslubiy manba hisoblanib, hududlarda urbanizatsiyani rivojlantirish, shaharlar iqtisodiyoti tuzilmasini takomillashtirish va shaharlarni rivojlantirish rejalari va dasturlarini shakllantirish bo‘yicha nazariy va metodologik natijalar olingan bo‘lsa-da, Qashqadaryo viloyatida shaharlarni rejalashtirish, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qo‘shgan hissasini o‘rganish bo‘yicha cheklangan doirada ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Qayd etilgan nazariy, uslubiy va amaliy muammolar dissertatsiya mavzusi, shuningdek, maqsad va vazifalarini belgilashga xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Qarshi davlat texnika universiteti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq ravishda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Transformatsiyalashayotgan iqtisodiyot sharoitida shaharlarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

---

[10] Scott A. J., Storper M. The nature of cities: The scope and limits of urban theory //International journal of urban and regional research. – 2015. – V. 39. – №. 1. – P. 1-15.

[11] Глазычев В. Л. Урбанистика. – Европа, 2008.; Оборин М. С., Шерешева М. Ю., Иванов Н. А. Обоснование стратегических ориентиров социально-экономического развития малых городов России //Вестник Пермского университета. Серия: Экономика. – 2017. – Т. 12. – №. 3. – С. 437-452.

[12] Зокиров С.С. Ўзбекистонда урбанизация жараёнларини тартибга солиш тизимини такомиллаштириш: И.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ПМТИ, 2021. – 264 б.; Ата-Мирзаев О.Б. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. – Университет, 2002. – 125 с.; Ахмедов Т.М. Стратегия комплексного и устойчивого развития регионов Узбекистана. В кн.: Модернизация национальной экономики Узбекистана. – Т.: АН РУз, 2011. - С. 18-21.; Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис.докт. экон. наук. – Ташкент: 1998.; Салиев А.С., Федорко В.Н. Размещение населения и элементы урбанизации в территориальной системе природно-хозяйственных комплексов Республики Узбекистан //Вестник Приамурского государственного университета им. Шолом-Алейхема. – 2012. – №. 2. – С. 44-51.; Султонов У.С. Социально-экономическое развитие малых и средних городов Ферганского экономического районаУзбекистана: Автореф. дисс. ... канд. эконом. наук. Т., – 1993. –19 с.; Эгамбердиева М.М. Бозор иқтисодиёти шароитида шаҳарлар ривожланишининг минтақавий муаммолари (Тошкент вилояти мисолида). Геогр. фан. номз. дисс. автореферати. Т., 2012.

Tadqiqotning vazifalari:

shaharlarni rivojlantirish orqali tarkibiy o‘zgarishlarni jadallashtirishning konseptual asoslarini ifodalash;

shaharlarni rejalashtirishning uslubiy jihatlarini asoslash;

tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonini xorij tajribasi asosida o‘rganish;

O‘zbekiston mintaqalarida tarkibiy o‘zgarishlar va urbanizatsiya jarayonlarining aloqadorligini tahlil qilish;

mamlakat iqtisodiyotida Qashqadaryo viloyatining tutgan o‘rni va ahamiyatini asoslash;

Qashqadaryo viloyati hududlarida urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanish holati va xususiyatlarini aniqlash;

Qashqadaryo viloyatida kichik va o‘rta shaharlarni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash;

Qashqadaryo viloyatida katta va yirik shaharlarni rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilash;

Qashqadaryo viloyati shaharlarini rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududlari tanlab olingan, monografik tadqiqotlar Qashqadaryo viloyati bo‘yicha olib borilgan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib mintaqada shaharlarni rivojlantirish reja va dasturlarini ishlab chiqish, hamda, amalga oshirishda vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiya, guruhlash, ekonometrik modellashtirish va prognozlash usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

shaharlarni rejalashtirish uch bosqichga - shaharlarni rivojlantirish konsepsiyasini shakllantirish, strategiya ishlab chiqish va aniq loyihalarni amalga oshirish kabi turlarga ajratilib, har bir bosqich bo‘yicha faoliyat yo‘nalishlari tizimlashtirilgan;

iqtisodiy o‘sish sur’ati sust bo‘lgan 6 ta hududda aholi daromadlarining o‘sishi iqtisodiyot tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining ko‘payishi natijasida yuz berayotganligi (koeffitsiyent: 0.0389, t qiymat: 2.0305*), tez sur’atda o‘sayotgan 7 ta hududlarda esa sanoat va xizmatlar sohasida yangi korxonalar hamda ish o‘rinlarini yaratilishi (koeffitsiyent: -0.0662, t qiymat: - 3.0949**) aholida shaharlardagi qulay sharoitlarda yashashga rag‘bat uyg‘otishi qat’iy ta’sir (fixed effect) modeli vositasida asoslangan;

shaharlar kengayish intensivligini va fazoviy (hududiy) yo‘nalishini aniqlashda foydalaniluvchi vertikal o‘sish indeksini $VHG = \frac{(B^{k+})_{t+1}}{(B^{k-1-})_{t+1}} - \frac{(B^{k+})_t}{(B^{k-1-})_t}$ formulasi asosida hisoblash usuli, yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joylar miqdori ko‘rsatkichlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya darajasi o‘zgarishining 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan ko‘p variantli prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik va o‘rta shaharlarning rivojlanish darajasini oshirish maqsadida uy-joy va kommunal xizmatlar infratuzilmasiga sarmoya kiritish, kichik biznes korxonalarini kichik va o‘rta shaharlarga ko‘chirish va korxonalarning qo‘shimcha filiallarini tashkil etishni moliyaviy rag‘batlantirishni nazarda tutuvchi “Urbanizatsiya dasturi”ni qabul qilish zarurati asoslangan;

tarkibiy o‘zgarishlarning jadallashishi mamlakatda urbanizatsiya darajasining ortishiga sabab bo‘lishi sobit (qati’y) va ta’sir (*fixed effect*) modeli vositasida ilmiy asoslanib, hududiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda hududlarning ixtisoslashuv darajasini oshirish, ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiyalash orqali iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish, shaharlarda sanoat va xizmatlar sohasida yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarga ustuvorlik berish taklif qilingan;

shaharlarni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlashda mahalliy manfaatdor tomonlarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb qilish va hududiy rivojlanish tashabbuslarida ishtirokini ta’minlashda pastdan yuqoriga yondashuvini qo‘llashning ahamiyati asoslanib, bunda samarali instrument sifatida davlat-xususiy sektor sherikchiligi asosida muloqotlar o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish taklif etilgan;

Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya darajasini o‘zgarishining 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan ko‘p variantli ssenariylariga erishish va salbiy oqibatlarni oldini olish yuzasidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning tadqiqot mazmuniga mosligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi hukumati me’yoriy-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va Qashqadaryo viloyati hokimligi ma’lumotlariga asoslangani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati hududlar urbanizatsiyasini rivojlantirish, shaharlarni rejalashtirish uslubiyotini takomillashtirish, shaharni rivojlantirish konsepsiyalarini ishlab chiqish va shaharni rivojlantirish rejalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-uslubiy taklif va tavsiyalarda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning ilmiy natijalari shaharlarni rejalashtirishning konseptual asoslari, shaharlar rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning ahamiyati hamda, urbanizatsiya darajasining prognoz modellarini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Olingan natijalarning amaliy ahamiyati esa mahalliy manfaatdor tomonlarni qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb qilish orqali hududlarni rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash, shaharlar jozibadorligini oshirish, shaharni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Transformatsiyalashayotgan iqtisodiyot sharoitida shaharlarni rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

shaharlarni rivojlantirish jarayonida muallif tomonidan taklif etilgan shaharlarni rivojlantirish konsepsiyasini shakllantirish, strategiyani ishlab chiqish va aniq loyihalarni amalga oshirish bosqichlari bo‘yicha takliflar berish, hududlar master-rejalarini ishlab chiqishning texnik topshiriqlarini shakllantirishda foydalanilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 28-yanvardagi 13-06/1009-son, Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 30- noyabrdagi 03-03-03/10777-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning amaliyotga joriy qilinishi Qarshi, Kitob va Koson tumanlari hududlari uchun ishlab chiqiladigan master-rejalarni shakllantirishga xizmat qilgan;

iqtisodiy o‘sish sur’ati sust bo‘lgan 6 ta hududda aholi daromadlarining o‘sishi iqtisodiyot tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining ko‘payishi natijasida yuz berayotganligi (koeffitsiyent: 0.0389, t qiymat: 2.0305*), tez sur’atda o‘sayotgan 7 ta hududlarda esa sanoat va xizmatlar sohasida yangi korxonalar hamda ish o‘rinlarini yaratilishi (koeffitsiyent: -0.0662, t qiymat: - 3.0949**) aholida shaharlardagi qulay sharoitlarda yashashga rag‘bat uyg‘otishi qat’iy ta’sir (fixed effect) modeli natijalardan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish bo‘yicha mahalliy hokimliklar qarorlarini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 28-yanvardagi 13-06/1009-son, Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 30- noyabrdagi 03-03/10777-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning amaliyotga joriy qilinishi 2024-yilning III choragi holatiga viloyatda 2248 ta yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga hissa qo‘shgan;

shaharlar kengayish intensivligini va fazoviy (hududiy) yo‘nalishini aniqlashda foydalaniluvchi vertikal o‘sish indeksini $VHG = \frac{(B^{k+})_{t+1}}{(B^{k-1-})_{t+1}} - \frac{(B^{k+})_t}{(B^{k-1-})_t}$ formulasi asosida hisoblash usuli, yakka tartibdagi va ko‘p kvartirali uy-joylar miqdori ko‘rsatkichlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif viloyat hududlarida ko‘p qavatli uylar qurish bo‘yicha loyihalarni shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 28-yanvardagi 13-06/1009-son, Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 30-noyabrdagi 03-03/10777-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning amaliyotga joriy qilinishi Nishon tumanida 10 ta 5 qavatli uylar qurilishi bo‘yicha loyihani shakllantirishga imkon bergan;

Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya darajasi o‘zgarishining 2025-2030-yillarga mo‘ljallangan ko‘p variantli ssenariylarini amalga oshirish yuzasidan raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiyotning barcha sohalarida innovatsiyalarni kengaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflardan viloyatda raqamlashtirish sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2025-yil 28-yanvardagi 13-06/1009-son, Qashqadaryo viloyati hokimligining 2024-yil 30-noyabrdagi 03-03/10777-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning amaliyotga joriy qilinishi Qashqadaryo viloyati hokimining 2024-yil 9-yanvardagi “Qashqadaryo viloyatida raqamlashtirish sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish to‘g‘risida”gi 6-4-0-Q/24-sonli qarori loyihasini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 9 ta, jumladan, 6 ta respublika miqyosidagi va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot ishining asosiy g'oyalari va mazmunini aks ettiradigan jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, 9 ta ilmiy maqola, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 4 tasi nufuzli xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Iqtisodiy transformatsiyani amalga oshirishda shaharlar salohiyatidan foydalanishning mohiyati va ahamiyati",** deb nomlangan birinchi bobida shaharlarni rivojlantirish orqali tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirishning konseptual asoslari, shaharlarni rejalashtirishning uslubiy jihatlari hamda shaharlarni rivojlantirish orqali tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning xorij tajribalari tadqiq qilindi.

Shahar aholisining farovon turmush tarzini ta'minlashda shaharning iqtisodiy asosini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy asosni rejalashtirish shaharning tabiiy-geografik, resurslar salohiyatiga ko'ra zaxira imkoniyatlari va raqobat ustunliklarini baholash va bu asosda iqtisodiyot tarmoqlarining ustuvorligini aniqlash, tarmoq korxonalarini optimal joylashtirish va aholining ish bilan bandligini ta'minlash kabi masalalarni qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, shahar iqtisodiy asosini rejalashtirish uslubiyotida yuqorida qayd etilgan jihatlarni inobatga olish va shu asosda shaharlarni rejalashtirish uslubiyotini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda shaharlarni rejalashtirishni shartli ravishda **uch bosqichga** ajratib amalga oshirish lozimligi asoslandi(1-jadval).

Birinchi bosqichda shaharlarni rejalashtirishning konsepsiyasi ishlab chiqilib, konsepsiyada shaharlarning kelajagiga kattaroq masshtabdan qaraladi. Dastavval tabiiy-geografik joylashuvi nuqtai nazaridan "kelajakda shaharni qanday imkoniyat va xatarlar kutmoqda", degan savolga javob topish lozim bo'ladi va shunga ko'ra rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari ya'ni uzoq yillik maqsadlar belgilab olinadi. Bu yerda shuni ta'kidlash joizki, biz tavsiya etayotgan konsepsiya shahardagi uy-joy, boshqa qurilish va infratuzilma obyektlarni muhandislik nuqtai nazaridan emas, balki iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yondashuv asosida faoliyat sikli -ularni ishga tushirish davri, ya'ni ulardan aholi ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish jarayonlarini va qulayligini ta'minlash kabilarni qamrab oladi.

Ikkinchi bosqichi – mintaqada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bosqichi bo‘lib, bu bosqichni konsepsiyaning mantiqiy davomi sifatida ko‘rishimiz mumkin. Strategiyani aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan uzoq muddatli reja sifatida qabul qilish mumkin. Agar strategiya umumiy yo‘nalishlar va maqsadlarni belgilasa, ularga erishish uchun aniq rejalar ishlab chiqilishi lozim bo‘ladi[13]. Strategiya chuqur tahlil va prognozlarga asoslanib, unda yo‘nalishlar kesimida ma’lum muddatga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar (rejalar) belgilab olinadi.

Uchinchi bosqich – aniq loyihalarni amalga oshirish bosqichi bo‘lib, u belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va maqsadli ko‘rsatkichlarga mos keluvchi parametrlarga ega loyihalarni joylashtirish yoki amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu jarayon rejalashtirishning barqaror rejalashtirish loyihasiga (BRL)[14] asoslanadi. “Barqaror rejalashtirish loyihasi belgilangan hududdan oqilona foydalanish va u yerda qurilish obyektlarini to‘g‘ri joylashtirish imkonini beradi. Aynan BRL asosida hududni rivojlantirish loyihalarining bir nechta variantlari tuziladi. Ushbu hujjatlar ma’lum bir hududning bosh rejasiga muvofiq ishlab chiqiladi”[15].

1-jadval

Shaharlarni rejalashtirish bosqichlari[16]

№	Bosqich nomi	Mazmuni
1-bosqich	Shaharlarni rejalashtirish konsepsiyasini ishlab chiqish	Tabiiy-geografik joylashuvi, hududiy va global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar nuqtai nazaridan kelajakda shahar uchun kutilayotgan imkoniyat va xatarlar aniqlanadi. Shahar iqtisodiyoti, demografiyasi va ijtimoiy muhitini shakllantirish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi.
2-bosqich	Rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish	Shaharning bugungi holati va salohiyati tahlilidan boshlanib, rivojlanish ssenariylari, strategiyaning missiyasi, bosh maqsadi shakllantiriladi, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va aholi bandligini oshirish hamda iqtisodiyotni malakali mutaxassislar bilan ta’minlash nuqtai nazaridan rivojlantirishning asosiy omillari va manbalari aniqlanadi. Strategiyani amalga oshirish mexanizmi hamda strategiya ijrosining monitoringini amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar va yo‘l xaritasi ishlab chiqiladi.
3-bosqich	Barqaror rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish	Belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va maqsadli ko‘rsatkichlarga mos keluvchi parametrlarga ega loyihalarni joylashtirish yoki amalga oshirish nazarda tutiladi. Bu jarayon barqaror rejalashtirish loyihasiga (BRL) asoslanib, u belgilangan hududdan oqilona foydalanish va qurilish obyektlarini to‘g‘ri joylashtirish imkonini beradi. BRL asosida hududni rivojlantirish loyihalarining bir nechta variantlari tuziladi.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish tendensiyalari**”, deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston mintaqalarida tarkibiy

[13] Reja strategiyani amalga oshirishning uzviy ketma-ketlikdagi harakatlarini belgilab, quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: maqsad va vazifalar, chora tadbirlar aniqlanadi, muddat va mas’ullar belgilanadi, resurs va mablag’lar ajratiladi, monitoring va baholash usullari tanlanadi.

[14] BRL-Barqaror rejalashtirIsh loyihasi

[15] https://stroy-dokument.kz/2013-04-08-10-35-26/katalog-uslug/item/poluchenie-pdp-plan-predvaritelnoj-podgotovki

[16] Muallif ishlanmasi

o‘zgarishlar va urbanizatsiya jarayonlarining aloqadorligi tahlili, mamlakat iqtisodiyotida Qashqadaryo viloyatining tutgan o‘rni va ahamiyati, Qashqadaryo viloyati hududlarida urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanish holati va xususiyatlari yuzasidan tadqiqot olib borildi.

Tarkibiy o‘zgarishlar (transformatsiya) va urbanizatsiya o‘rtasida kuchli sabab-oqibat aloqasi mavjud. Tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligidan sanoat va xizmat ko‘rsatish sohasiga o‘tishini, urbanizatsiya esa shaharlar va aholi punktlarining o‘sishini bildiradi. Mamlakatlar tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirar ekan, ularda odatda aholining qishloq joylaridan shaharlarga o‘tishi sodir bo‘ladi. Buning sababi shundaki, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalari shaharlarda markazlashgan bo‘lib, ish bilan ta’minlash imkoniyatlari ish haqining oshishiga olib keladi. Natijada, odamlar yaxshi iqtisodiy istiqbollarni izlash uchun shaharlarga oshiqishadi.

Shu bilan birga, urbanizatsiya shahar aholisining ehtiyojlarini qondiradigan yangi sanoat va xizmatlarni yaratish orqali tarkibiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Masalan, shaharlarning o‘sishi transport tizimlari va aloqa tarmoqlari kabi yangi texnologiyalarning rivojlanishiga olib kelib, bu esa xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘sishiga yordam bergan. Umuman olganda, tarkibiy o‘zgarishlar va urbanizatsiya o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi murakkab va ko‘p qirrali. Tarkibiy o‘zgarishlar yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish orqali urbanizatsiyaga turtki berishi mumkin bo‘lsa-da, urbanizatsiya yangi sanoat va xizmatlarni yaratish orqali ham tarkibiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotda urbanizatsiya darajasi va amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi tahlil qilindi. Aloqadorlik tahlilida 2012-yilda Dumitrescu va Hurlin[17] tomonidan taklif qilingan panelli ma’lumotlar uchun Grenjer testidan foydalanildi. Odatda Grenjer testi[18] bir vaqt qatori orqali boshqasini prognoz qilish imkoni mavjud yoki yo‘qligini aniqlash uchun ishlatiladi. Testning nol gipotezasiga ko‘ra, *x* vaqt qatori *y* vaqt qatori uchun Grenjer-sababini keltirib chiqarmaydi. Muqobil gipoteza esa *x* qator *y* qator o‘zgarishiga sabab bo‘lishini ifodalaydi. *p*-qiymatning 0,05 dan kam bo‘lishi testning nol gipotezasini rad etish va muqobil gipotezani qabul qilish mumkinligini anglatadi. Grenjer testini to‘g‘ri va teskari tartibda bajarilgan holatning ikkisida ham *p*-qiymat 0,05 dan kichik bo‘lsa, ikki taraflama aloqadorlik bor, degan xulosa olish mumkin.

Shuningdek, **urbanizatsiya darajasi shahar aholisining jami aholiga nisbati orqali ifodalandi.** Ko‘plab tadqiqotlarda tarkibiy o‘zgarishlar darajasini hisoblashda A. Dietrich[19] taklif etgan absolyut qiymat normasi (NAV - norm of absolute value) indeksidan foydalaniladi. **NAV indeksidan tarkibiy o‘zgarishlar darajasini aniqlashda asosan o‘zgarishlarning umumiy hajmini, miqyosini o‘lchash maqsadida ishlatiladi. Bu usul tizimdagi umumiy o‘zgarishlarni absolyut qiymat orqali jamlash natijasida yuz bergan o‘zgarishlarning hajmi yoki darajasini**

[17] Dumitrescu E, Hurlin C (2012). “Testing for Granger non-causality in heterogeneous panels.” Economic Modelling, 29(4), 1450 - 1460. ISSN 0264-9993.

[18] Granger CWJ (1969). “Investigating Causal Relations by Econometric Models and Cross-spectral Methods.” Econometrica, 37(3), 424–438. ISSN 00129682, 14680262.

[19] Dietrich A. Does growth cause structural change, or is it the other way around? A dynamic panel data analysis for seven OECD countries // Empirical Economics. – 2012. № 43(3), P. 915-944.

baholash imkonini beruvchi samarali vosita hisoblanadi. Tarkibiy o‘zgarishlar darajasi biror tizimning yoki o‘zgaruvchi xususiyatning vaqt davomida qanday o‘zgarganini ko‘rsatadi. *NAV* indeksi nol (0) va bir (1) oralig‘ida bo‘lib, tarkibiy tuzilma o‘zgarishsiz qolsa, indeks nolga teng bo‘ladi. Barcha tarmoqlardagi o‘zgarish eng yuqori darajada bo‘lganda butun iqtisodiyotning to‘liq o‘zgarganini anglatadi, bu holda indeks birga teng bo‘ladi. Indeks quyidagicha hisoblanadi:

$$NAV_{s,t} = 0{,}5 \sum_{i=1}^{n} \left| x_{i,s} - x_{i,t} \right| \qquad (1)$$

bunda $x_{i,s}$ va $x_{i,t}$ s va t vaqtda i-tarmoqning jami YaIMdagi ulushi.

Biroq mazkur indeks umumiy natijani ko‘rsatib, qaysi tarmoqning ulushi ortganini ifodalay olmaydi. Ushbu indeksni hisoblash usuliga ko‘ra, YaIM tarkibida qishloq xo‘jaligining ulushi kamayishi hisobiga sodir bo‘lgan 1 foizlik o‘zgarish sanoat tarmog‘i ulushi hisobiga sodir bo‘lgan ayni miqdordagi o‘zgarishga teng bo‘ladi. O‘zbekiston hududlarida iqtisodiyot tarmoqlari ulushi o‘zgarishining nobarqaror xususiyat kasb etishini inobatga olib, tadqiqotda tarkibiy o‘zgarish darajasi YaIM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ulushining o‘zgarishi sifatida ifodalandi.



1-rasm. O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar darajasi foiz (*NAV*)[20]

Tarkibiy o‘zgarishlar tahlilidan ko‘rish mumkinki, O‘zbekistonda *NAV* indeksi 2019-yilda eng katta qiymatiga (0,040) erishgan, ya’ni bu davrda YaIM tarkibida tarmoqlarning qo‘shilgan qiymati ulushlaridagi jami o‘zgarishlar 4 foizni tashkil etgan. *NAV* indeksi 2020-yilda 0,015 ga, 2021-yilda esa 0,010 gacha tushib ketgan bo‘lib, 2022-yildan indeks dinamikasida yana o‘sish kuzatilgan. NAV indeksini bunday pasayib ketishiga 2020-yildagi pandemiya inqirozini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. 2022-yildan (0,028) boshlab indeksni o‘sishi kuzatilgan bo‘lib, 2023-yilda indeksning qiymati 0,036 ni tashkil etgan bo‘lsada, biroq hali 2019-yil darajasiga yetgan emas(1-rasm).

[20] Manba: ilova ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi..



2-rasm. Tarkibiy o‘zgarishlar va urbanizatsiya darajasi o‘zgarishi (13 ta hudud bo‘yicha foizda)[21]

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2-rasmda 13 ta hudud bo‘yicha 11 yillik ma’lumotlar keltirilgan. ya'ni 11*13=143 ta nuqta (kuzatuv) bor. x (gorizontal) o‘qi tarkibiy o‘zgarishning (NAV indeksi) foizdagi ifodasi. y (vertikal) o‘qi esa urbanizatsiya darajasining o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishini ifodalaydi. Bu rasmdan 143 ta kuzatuvda tarkibiy o‘zgarishning qaysidir darajasida urbanizatsiya darajasi qancha foizga ortgan yoki kamayganining tasviri ifodalangan. Ushbu rasm 1-ilovada keltirilgan manba asosida hisoblangan.

2-jadval

Urbanizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar darajasi o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi (Grenjer testi)[22]

Munosabat (sabab → oqibat)	**Lag**	**Zbar**	**Ztilde**
Barcha hududlar (13 ta hudud)			
tarkibiy o‘zgarish → urbanizatsiya	1	9.9733***	5,1725***
	2	3.9923***	0,4263
urbanizatsiya → tarkibiy o‘zgarish	1	0.5962	-0,1438
	2	1.5074	-0,2405
1-guruh (6 ta hudud)			
tarkibiy o‘zgarish → urbanizatsiya	1	12.134***	6,5519***
	2	2.3959*	0,2047
urbanizatsiya → tarkibiy o‘zgarish	1	1.7415	0,6600
	2	1.9985*	0,0980
2-guruh (7 ta hudud)			
tarkibiy o‘zgarish → urbanizatsiya	1	2.3575*	0,9830
	2	3.2225**	0,39139
urbanizatsiya → tarkibiy o‘zgarish	1	-0.7998	-0,8070
	2	0.2040	-0,41854

[21] Manba: ilova ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi..
[22] Manba: ilova ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Urbanizatsiya va tarkibiy o‘zgarishlar darajasi o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqadorligi tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekistonning barcha hududlari misolida bu ikki ko‘rsatkichlar o‘rtasida bir tomonlama bog‘liqlik mavjud. 1-guruhda Zbar statistikasi bo‘yicha natijalar ham 1-lagda bir tomonlama bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib, 2-lagda ikki tomonlama bog‘liqlik kuzatildi. 2-guruhda esa faqat Zbar statistikasi bo‘yicha bir tomonlama bog‘liqlik qayd etildi (1-jadval). Korrelyatsion tahlil (VIF test) natijalari barcha erkli o‘zgaruvchilar bo‘yicha VIF 1 dan 1,5 gacha oraliqda ekani, ya’ni multikollinearlik[23] mavjud emasligini ko‘rsatdi.

VIF (Variance Inflation Factor) - bu regressiya modelidagi multikollinearlikni baholash uchun ishlatiladigan statistik ko‘rsatkich. U har bir mustaqil o‘zgaruvchi uchun hisoblanadi.

$$VIF = 1 / (1 - R^2) \quad (2)$$

Bu yerda: R^2 - berilgan o‘zgaruvchini qolgan barcha mustaqil o‘zgaruvchilar orqali tushuntirish darajasi.

VIF = 1: Bu, o‘zgaruvchi boshqa o‘zgaruvchilar bilan mutlaq bog‘lanmaganligini, ya'ni multikollinearlik mavjud emasligini anglatadi.

1 < VIF < 5: Bu ko‘rsatkich o‘rtacha darajadagi multikollinearlikni ko‘rsatadi, ya’ni o‘zgaruvchilar o‘rtasida sezilarli darajada bog‘lanish mavjud emas.

VIF ≥ 5 yoki **VIF ≥ 10**: Bu qiymatlar yuqori multikollinearlikni ko‘rsatadi. Bunday holatda o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘lanish juda kuchli bo‘lishi mumkin, bu esa modelning ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sabab-oqibat aloqadorlik testining Zbar statistikasi bo‘yicha natijalar barcha guruhlarda tarkibiy o‘zgarishlarning urbanizatsiya darajasiga ta’siri mavjudligini ko‘rsatdi. Grenjer testi bir o‘zgaruvchini boshqasi orqali prognoz qilish imkoniyatini baholab, u ta’sirning yo‘nalishini aniqlab bera olmaydi. Ya’ni tarkibiy o‘zgarishlarning urbanizatsiya darajasi o‘zgarishiga ta’siri ijobiy yoki salbiyligini aniqlashda regression tahlilni amalga oshirish lozim bo‘ladi. Shuni inobatga olib, tadqiqotda ta’sirning yo‘nalishi qat’iy (fixed) va tasodifiy (random) ta’sir modellari vositasida baholandi. Nazorat qiluvchi o‘zgaruvchilar sifatida hududlar aholisining iqtisodiy faolligi va hududlarda amalga oshirilgan qurilish ishlari tanlab olindi.

Tadqiqot natijalaridan ko‘rish mumkinki, tarkibiy o‘zgarishlarning jadallashishi mamlakat hududlarida urbanizatsiya darajasining ortishiga xizmat qiladi. Iqtisodiy o‘sish sur’ati sust bo‘lgan Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida iqtisodiyot tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining ko‘payishi natijasida aholi daromadlarining ortishi ularda shaharlardagi nisbatan qulay sharoitlarda yashashga rag‘bat uyg‘otmoqda. Biroq mazkur hududlardagi shaharlar iqtisodiyotning drayveri sifatidagi vazifasini bajarishda oqsamoqda. Andijon, Xorazm, Toshkent, Buxoro, Jizzax, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikalarida esa shaharlarda sanoat va xizmatlar sohasida yangi korxonalar va ish o‘rinlari yaratilishi urbanizatsiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, mintaqaviy dasturlarni tuzishda hududlarning ixtisoslashuv darajasini oshirish, sanoat va maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish

[23] Multikollinearlik - mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik (korrelyatsiya) bo‘lib, uning yuqori darajada bo‘lishi xulosalarning ishonchliligini kamaytirib, umumiy natijani baholash va tahlil qilishni qiyinlashtiradi

mazkur hududlarda urbanizatsiya darajasining ortishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, tarkibiy o‘zgarishlar natijasida urbanizatsiyaning rivojlanishi va shaharlarda sanoat va xizmatlar sohasida yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hududlar rivojlanish darajasini oshirib, aholining yashash va munosib mehnat sharoitlariga erishish maqsadida o‘z hududidan tashqaridagi boshqa rivojlangan shaharlarga intilishining oldini oladi.

3-jadval

Qa’tiy (fixed) va tasodifiy (random) ta’sir modellari[24]

Ko‘rsatkichlar	**Fixed effect**		**Random effect**	
	koeffitsiyent	standart xatolik (t qiymat)	koeffitsiyent	standart xatolik (z qiymat)
1-guruh (6 ta hudud)				
konstanta	-	-	0.4915	0.0387 (12.6466) ***
YaHMda qishloq xo‘jaligining ulushi, %	0.0389	0.0192 (2.0305) *	0.0371	0.0191 (1.9376) **.**
aholi iqtisodiy faolligi, %	-0.0005	0.0003 (-1.7006) **.**	-0.0005	0.0003 (-1.6340)
qurilish ishlari, mlrd. so‘m, logarifm qiymati	-0.0032	0.0016 (-1.9676) **.**	-0.0033	0.0016 (-2.0217) *
Model xulosasi (n = 6, T = 11, N = 66)	R^2: 0.2599; Adj. R^2: 0.1561; F-statistic: 6.67336 on 3 and 57 DF, p-value: 0.00061209		R^2: 0.2400; Adj. R^2: 0.2033 Chi^2: 19.5814 on 3 DF, p-value: 0.0002	
Hausman testi	Chi^2 = 1.9524, df = 3, p-value = 0.5824. **Afzal model:** Fixed effect			
2-guruh (7 ta hudud)				
(Intercept)	-	-	0.5265	0.0457 (11.5145) ***
YaHMda qishloq xo‘jaligining ulushi, %	-0.0662	0.0214 (-3.0949) **	-0.0663	0.0212 (-3.1310) **
aholi iqtisodiy faolligi, %	0.0005	0.0002 (2.4564) *	0.0005	0.0002 (2.4638) *
qurilish ishlari, mlrd. so‘m, logarifm qiymati	-0.0070	0.0019 (-3.7651) ***	-0.0070	0.0018 (-3.7901) ***
Model xulosasi (n = 7, T = 11, N = 77)	R^2: 0.2084; Adj. R^2: 0.1021; F-statistic: 5.87905 on 3 and 67 DF, p-value: 0.0013		R^2: 0.1972; Adj. R^2: 0.1642; Chi^2: 17.9356 on 3 DF, p-value: 0.0004	
Hausman testi	Chi^2 = 0.015852, df = 3, p-value = 0.9995. **Afzal model:** Fixed effect			

*Izoh: ***: 0,0001; **: 0,001; *: 0,01; **.**: 0,05 p qiymatni ifodalaydi.*

Hausman testi natijalaridan ko‘rish mumkinki, har ikkala guruh uchun ham qat’iy (fixed) ta’sir modeli afzalroq hisoblanadi. Ikki model koeffitsiyentlari o‘rtasida yirik tafovutlar kuzatilmadi. 1-guruh bo‘yicha iqtisodiyot tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining ortishi keyingi yilda urbanizatsiyaning ortishiga xizmat qilishi ma’lum bo‘ldi. Bu esa bu hududlardagi qishloq joylarda yashovchi aholi daromadlarining ortishi ularda shaharlarda yashashga rag‘bat uyg‘otayotganidan dalolat beradi. 2-guruhda esa 1-guruhdagi holatga teskari qonuniyat kuzatilib, bu shaharlarda sanoat va xizmatlar sohasida yangi korxonalar va ish o‘rinlari yaratilishining urbanizatsiyaga ijobiy ta’sirini namoyon etadi.

[24] Manba: ilova ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholini uy-joy bilan ta’minlashga katta e’tibor qaratildi. Jumladan, 2019-2023-yillarda hududlar bo‘yicha uy-joy fondining umumiy maydoni 32,9 foizga ortdi.

Mamlakatimizda va Qashqadaryo viloyatida uy-joy fondi maydoni dinamikasining o‘zgarishi (2.7-rasm) tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2019-2023-yillarda bu sohada o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida uy-joy maydoni 2019-yilda o‘gan yilga nisbatan 3,0 foizga oshgan bo‘lsa, pandemiya inqirozi yuz bergan 2020-yilda 2,3% pasayish kuzatilgan. 2021-yilda tahlil davridagi eng yuqori o‘sish sur’atiga ega bo‘lgan 15,9%ga erishilgan, qolgan ikki yilda ham 3,4% va 5,2%li o‘sish ta’minlangan. Xususan, bu o‘sish tahlil davrida uy-joy fondi maydoni Farg‘ona viloyatida 70,2 foiz, Andijon viloyatida 66,7 foiz, Sirdaryo viloyatida 44,0 foiz va Samarqand viloyatida 42,6 foizga ortishi orqali ta’minlangan.



3-rasm. Uy-joy fondi maydonining o‘zgarish dinamikasi[25]

Qashqadaryo viloyatida esa tahlil davrida uy-joy maydonining eng yuqori o‘sish sur’atiga 2019-yilda erishilgan bo‘lib (3,4%), 2020-yilda eng past ko‘rsatkichni bergan (0,5%). Tahlil davrining keyingi yillarida uy-joy maydonlari o‘sishi dinamikasi kichik sur’atlarda yuz berayotganligini ko‘rishimiz mumkin (2021-yilda 1,1%, 2022-yilda 2,8% va 2023-yilda 2,5%).

O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondining umumiy maydoni 692512,6 ming kv.m.ni tashkil etib, uning asosiy ulushi (43,6 foizi) Farg‘ona (11,9 foiz), Samarqand (12,0 foiz), Toshkent (9,7 foiz) viloyatlari va Toshkent shahriga (9,9 foiz) to‘g‘ri keladi. Sirdaryo (2,6 foiz), Jizzax (3,8 foiz) va Navoiy (4,1 foiz) viloyatlarida bu ko‘rsatkich eng kichik qiymatlarni tashkil etib, bu uchta hudud jami uy-joy fondi maydonining 10,1 foiziga egalik qiladi.

Urbanizatsiya jarayonlarini tezlashuviga foydalanishga topshirilgan qurilishi tugallangan va rekonstruksiya qilingan uy-joylar miqdorini o‘sishi ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qashqadaryo viloyatida bu jarayonlarni borishini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni respublika ko‘rsatkichlari bilan taqqoslagan holda tahlili amalga oshirildi.

[25] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

4-jadval

O‘zbekiston Respublikasida foydalanishga qabul qilingan qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan uy-joylar tog‘risida ma’lumot, kv.m.[26]

Hudud nomi	Yakka tartibdagi						Ko‘p kvartirali					
	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-y.da 2019-y.ga nisbatan o‘zgarish (%)	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-y.da 2019-y.ga nisbatan o‘zgarish (%)
Qoraqalpog‘iston Res.	322879	326783	338976	345776	352067	109,0	364400	366942	381833	389893	398282	109,3
Andijon	517169	522962	569453	589198	596532	115,3	563342	571670	620462	645950	657505	116,7
Buxoro	355607	368407	372231	374371	375035	105,5	410614	428548	436043	442769	448536	109,2
Jizzax	149256	152334	190032	192405	206039	138,0	213606	220102	256480	259626	274681	128,6
Qashqadaryo	551728	615742	619801	625497	631876	114,5	604882	671233	677150	684595	691505	114,3
Navoiy	142628	145045	165412	169309	161987	113,6	212876	217414	238365	247010	243989	114,6
Namangan	447444	473297	499743	506869	512456	114,5	485482	513433	544333	556475	566316	116,7
Samarqand	540268	548195	687220	690642	739525	136,9	612346	623448	775466	788302	841896	137,5
Surxondaryo	379405	388196	445284	446592	448928	118,3	437818	447955	488756	491547	496643	113,4
Sirdaryo	118809	119487	130171	131801	148257	124,8	158712	160173	171749	174991	190481	120,0
Toshkent v.	455556	522086	528448	543635	546472	120,0	617483	687295	693608	707687	714531	115,7
Farg‘ona	545265	547989	669833	675416	680472	124,8	654955	660266	791211	800767	810241	123,7
Xorazm	330941	334958	344121	348404	355686	107,5	363279	368437	379387	386860	398335	109,6
Toshkent sh.	158171	161027	184039	196767	201895	127,6	637918	653015	692353	724692	743297	116,5

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yillarda jami 13 433 465 kv.m, qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan bino va inshootlar foydalanishga qabul qilinib, shundan 55,1 foizini ko‘p kvartirali uy-joylar tashkil etdi (2.9-jadval). Mazkur davrda Toshkent shahri, Samarqand va Farg‘ona viloyatlari foydalanishga qabul qilingan inshootlar maydoni bo‘yicha yetakchi hududlar bo‘lib, Qashqadaryo viloyati ko‘p kvartirali uy-joylar qurish dinamikasi bo‘yicha Toshkent viloyatidan keyingi o‘rinni egalladi. Qashqadaryo viloyatida foydalanishga qabul qilingan bu turdagi bino va inshootlarning umumiy maydoni 691 505 kv.m.ni tashkil etdi.

Tahlil davrida yakka tartibdagi uy-joylar bo‘yicha ham, ko‘p kvartirali uylar qurish bo‘yicha ham Toshkent shahri yetakchi hudud bo‘ldi. Jami foydalanishga qabul qilingan uy-joylarning 24,5 foizi, ko‘p kvartirali uylarning 28,9 foizi, Yakka tartibdagi uy-joylarning 19,1 foizi Toshkent shahriga to‘g‘ri keldi. Samarqand viloyati ko‘p kvartirali uy-joylar qurish bo‘yicha Toshkent shahridan keyingi o‘rinda bo‘lib, viloyatda foydalanishga qabul qilingan bu turdagi bino va inshootlarning umumiy maydoni 841 896 kv.m.ni tashkil etdi. Sirdaryo, Andijon va Navoiy viloyatlarida foydalanishga topshirilgan bino va inshootlar maydoni bo‘yicha so‘nggi o‘rinlardan joy oldi. Xususan, Sirdaryo viloyatida har ikkala turdagi uy-joylar maydoni eng kichik qiymatlarni tashkil etdi.

[26] Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

5-jadval

Qashqadaryo viloyatidagi uy-joylar soni tog‘risida ma’lumot, nafar[27]

Hudud nomi	Yakka tartibdagi						Ko‘p kvartirali					
	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y	2023-y.	2023-y.da 2019-y.ga nisbatan o‘zgarish (%)	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-y.da 2019-y.ga nisbatan o‘zgarish (%)
Qarshi sh.	50368	42590	42820	42820	39630	78,7	76081	70294	71369	71822	70880	93,2
Shahrisabz sh.	22215	26167	26338	26842	27252	122,7	23911	30339	30552	31270	32047	134,0
Ko‘kdala t.				31350	31358	-				31404	31532	-
G‘uzor t.	35297	39802	40077	40482	41201	116,7	35959	40664	40939	41344	42126	117,2
Dehqonobod t	22206	27111	27511	27861	28240	127,2	22496	27401	27849	28239	28648	127,3
Qamashi t.	42883	46078	46267	46547	47838	111,6	44395	46998	47187	47467	48778	109,9
Qarshi t.	42219	56007	56007	58738	58806	139,3	44932	62536	62716	65612	61511	136,9
Koson t.	44084	53331	53499	53661	54455	123,5	45679	54771	54966	55335	56129	122,9
Kitob t.	43584	52204	52593	53043	53722	123,3	45382	53577	54002	54562	55432	122,1
Mirishkor t.	16970	20466	20832	20862	22070	130,1	17984	21006	21444	21514	22722	126,3
Muborak t.	13425	14824	15081	15149	15227	113,4	17034	17957	18322	18450	19732	115,8
Nishon t.	27204	27561	27659	27840	29409	108,1	33030	32547	32693	32874	34443	104,3
Kasbi t.	38821	36804	37153	37221	37605	96,9	39586	37161	37654	37762	38176	96,4
Chiroqchi t.	70231	74334	74902	43665	44343	63,1	71646	75460	76028	44753	45527	63,5
Shahrisabz t.	35245	46219	46581	46755	46925	133,1	38103	47223	47653	48031	48221	126,6
Yakkabog‘ t.	46976	52244	52481	52661	53795	114,5	48664	53299	53776	54156	55601	114,3

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tahlil davrida yakka tartibdagi uy-joylar soni viloyatning Qarshi (139,3%), Mirishkor (130,1%) va Shahrisabz (133,1%) tumanlari yuqori darajada o‘sishga ega bo‘lgan. Tadqiqot davrida ko‘p kvartirali uy-joylar qurish bo‘yicha esa Shahrisabz shahri (134,0%), Dehqonobod (127,3%) va Qarshi (136,9%) tumanlari yaqqol yetakchi bo‘lgan bo‘lsa, Chiroqchi (63,1%), Kasbi (96,4%) tumanlari va Qarshi shahrida (93,2%) taqqoslanayotgan davrga nisbatan kamayish kuzatilgan.

Qashqadaryo viloyatida 2019-2023-yillarda foydalanishga qabul qilingan uy-joylar maydoni jami 1 323 381 kv.m.ni tashkil etib, shundan 69,0 foizi yakka tartibda qurilgan uy-joylar hissasiga to‘g‘ri keldi. Eng ko‘p uy-joylar Mirishkor (245 159,6 kv.m.) va G‘uzor (77 935,2 kv.m.) tumanlari hamda Qarshi shahrida (161 757,8 kv.m.) foydalanishga topshirildi. Bu uch hududning jami viloyat bo‘yicha ko‘rsatkichdagi o‘rni 53,5 foizni tashkil etdi. Dehqonobod (4 129,4 kv.m.), Kasbi (14 017,8 kv.m.) va Kitob (18 018,6 kv.m.) tumanlari uy-joylarni foydalanishga qabul qilish bo‘yicha viloyat hududlari orasida so‘nggi o‘rinlardan joy oldi.

[27] Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



4-rasm. 2019-2023-yillarda Qashqadaryo viloyatida foydalanishga qabul qilingan uy-joylar (kv.m.)[28]

Tahlil davrida yakka tartibdagi uy-joylar qurish bo‘yicha Mirishkor, Qarshi shahri va G‘uzor tumanlari yetakchi bo‘ldi. Jami foydalanishga qabul qilingan yakka tartibdagi uy-joylar maydonining 56,9 foizi bu uch hudud hissasiga to‘g‘ri keldi. Dehqonobod, Kasbi va Koson tumanlari bu yo‘nalishda viloyat hududlari orasida so‘nggi o‘rinlardan joy olishdi.

Ko‘p kvartirali uy-joylar qurish bo‘yicha Qarshi shahri yaqqol yetakchi bo‘lib, 2019-2023-yillarda shaharda jami 139 150 kv.m. bu turdagi uy-joylar foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Qarshi va Yakkabog‘ tumanlari Qarshi shahridan keyingi yetakchilar bo‘ldi. Jami foydalanishga qabul qilingan ko‘p kvartirali uy-joylar maydonining 62,3 foizi bu uch hudud hissasiga to‘g‘ri keldi.

Vaqt o‘tishi bilan o‘sishning intensivligi, turi (gorizontal va vertikal) va hududiy yo‘nalishini tavsiflashda tadqiqotchilar vertikal o‘sish indeksidan foydalanishgan. Hududiy rivojlanish (yoki fazoviy rivojlanish) — bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning ma'lum bir hududda (makro yoki mikro) joylashuvi va taqsimlanishini o‘rganadigan jarayonni anglatadi. Bunday rivojlanishning maqsadi resurslarni samarali taqsimlash, hududlar o‘rtasidagi tengsizlikni kamaytirish va hududlar o‘rtasida integratsiyani oshirishdir. Vertikal rivojlanish — bu kompaniya, sanoat yoki hududning rivojlanishiga qaratilgan strategiya, bunda o‘sish vertikal yo‘nalishda amalga oshiriladi.

$$VHG = \frac{(B^{k+})_{t+1}}{(B^{k-1-})_{t+1}} - \frac{(B^{k+})_{t}}{(B^{k-1-})_{t}} \qquad (3)$$

bunda $(B^{k+})_x$ va $(B^{k-1-})_x$ x-vaqt oralig‘ida qurilgan k qavatdan ko‘p va kam qavatli uylar sonini ifodalaydi.Formula orqali **VHG** (vertikal o‘sish indeksi) o‘zgarishining harakatini kuzatish mumkin. Bu indeks o‘zgaruvchilarni vaqt o‘tgan sayin qanday o‘zgarayotganini ko‘rsatadi. Ya’ni, ushbu formulada vaqt davomida

[28] Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

o‘zgaruvchi ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini hisoblash va natijaviy o‘sish darajasini aniqlash uchun ishlatiladi. Quyidagi 6-jadvalda Qashqadaryo viloyatida 2019-2023-yillarda vertikal o‘sish holati tahlil qilingan.

6-jadval

Qashqadaryo viloyati hududlarida vertikal o‘sish darajasi, foiz[29]

Hudud nomi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-y.da 2019-y.ga nisbatan o‘zgarish (f.p.)
Qashqadaryo viloyati	0,338	-0,622	0,241	0,195	-0,011	-0,3
Qarshi shahri	2,489	13,998	1,624	1,058	11,124	8,6
Shahrisabz shahri		8,309	0,056	0,497	1,099	1,1
Ko‘kdala tumani					0,383	0,4
G‘uzor tumani	-0,016	0,290	-0,015	-0,022	0,116	0,1
Dehqonobod tumani	0,028	-0,236	0,159	0,128	0,088	0,1
Qamashi tumani	-0,033	-1,529	-0,008	-0,012	-0,012	0,0
Qarshi tumani	0,018	5,231	0,321	-0,276	-7,103	-7,1
Koson tumani	-0,016	-0,918	0,042	0,377	-	0,0
Kitob tumani	0,126	-1,495	0,049	0,185	0,319	0,2
Mirishkor tumani	0,011	-3,337	0,299	0,188	-0,171	-0,2
Muborak tumani	-0,210	-5,748	0,356	0,300	7,795	8,0
Nishon tumani	-8,493	-3,325	0,109	-0,118	-0,965	7,5
Kasbi tumani	-0,005	-1,001	0,378	0,105	0,065	0,1
Chiroqchi tumani	-0,188	-0,500	-0,011	0,988	0,178	0,4
Shahrisabz tumani	-0,142	-5,937	0,129	0,428	0,033	0,2
Yakkabog‘ tumani	0,009	-1,574	0,448	0,371	0,518	0,5

Tahlil davrida Qashqadaryo viloyati hududlarida vertikal o‘sish darajasi notekis bo‘lganligini ko‘rish mumkin. 2023-yilda Qarshi shahri (11,124%) va Muborak tumanlarida (7,795%) ko‘rsatkich bilan vertikal o‘sishni ta’minlagan bo‘lsa, Qarshi tumanida esa bu ko‘rsatkich (-7,103%) keskin kamayib ketgan. Viloyatning Koson (0), Qamashi (0), Kasbi (0,1), G‘uzor (0,1), Mirishkor (-0,2) tumanlarida 2023-yilda 2019-yilga nisbatan o‘zgarish tendensiyasi deyarli yuqori bo‘lmagan bo‘lsa, Mirishkor tumanida esa bu ko‘rsatkich 0,2 foiz punktga pasaygan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatidagi jami foydalanishga topshirilgan uy-joylar maydonida ko‘p kvartirali uylarning ulushi Mirishkor tumanida 3,4 foiz, G‘uzor tumanida 10,2 foiz, Nishon tumanida 14,9 foiz va Kitob tumanida 18,7 foizni tashkil etgan.

[29] Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



5-rasm. 2019-2023-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarining vertikal o‘sish indeksi (%)[30]

Faqat Qarshi shahri (86,0 foiz) mazkur ulush 50 foizdan yuqori bo‘lgan. Shuningdek viloyatning 7 ta hududida (G‘uzor, Kitob, Ko‘kdala, Muborak, Nishon, Chiroqchi va Mirishkor tumanlari) foydalanishga topshirilgan ko‘p kvartirali uy-joylar maydonining ulushi 30 foizga ham yetmaydi. Bu holat viloyatda yakka tartibdagi uy-joylarga bo‘lgan talab yuqori ekanligini ko‘rsatib, vertikal o‘sish suratining sust kechayotganidan dalolat beradi. Shuni inobatga olib, tadqiqotda ko‘p kvartirali uy-joylar qurilishini vertikal o‘sish ifodasi sifatida qabul qilish lozim.

Tahlillardan ko‘rish mumkinki, 9 ta hududda vertikal o‘sish indeksi manfiy qiymat kasb etib, bu holat ko‘p kvartirali uy-joylar qurish bo‘yicha hududlararo tengsizlikning yuqoriligini ko‘rsatadi. Dehqonobod, G‘uzor, Chiroqchi, Muborak tumanlari hamda Shahrisabz va Qarshi shahrida vertikal o‘sish musbat qiymatlarni tashkil etadi. Xususan, Dehqonobod tumanida 2022-yilda 848,7 kv.m. uy-joylar foydalanishga qabul qilingan bo‘lib, bu yilda ko‘p kvartirali uy-joylar qurilishi yakunlanmagan. 2023-yilda esa tumanda barpo etilgan bino-inshootlarning jami maydoni 3280,7 kv.m.ni tashkil etib, shundan 93,2 foizi (3056,7 kv.m.) ko‘p kvartirali uy-joylarga to‘g‘ri kelgan. Kasbi tumanida ham Dehqonobod tumanidagi kabi 2022-yilda ko‘p kvartirali uy-joylar foydalanishga topshirilmagan bo‘lib, 7929,0 kv.m. maydonga yakka tartibdagi uy-joylar barpo etilgan. 2023-yilga kelib yakka tartibdagi uylar qurilishi sekinlashib (1518,4 kv.m.), qurilishi yakunlangan ko‘p kvartirali uylar maydoni 4570,4 kv.m.ni tashkil etgan.

Dissertatsiyaning “**Iqtisodiy transformatsiya sharoitida shaharlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari**”, deb nomlangan uchinchi bobida Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya darajasi 42,8 foizni tashkil etib, bu esa, tadqiqotda o‘rganilgan urbanizatsiya darajasi rivojlangan mintaqalar ko‘rsatkichidan sezilarli ravishda kamligini bildiradi. Urbanizatsiya darajasi Koson (50,5 foiz), Muborak (50,6 foiz) va Nishon (50,1 foiz) tumanlarida yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etib, past ko‘rsatkichlar Dehqonobod (19,1 foiz), Ko‘kdala (15,7 foiz) va G‘uzor (23,5 foiz) tumanlarida qayd etiladi.

[30] Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

“O‘zbekiston – 2030”[31] strategiyasida 2030-yilga borib urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish maqsad qilingan bo‘lib, shaharlarda yashovchi aholi ulushi mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan past bo‘lgan Qashqadaryo viloyati uchun bu maqsad yanada ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olib, tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya darajasi o‘zgarishining prognoz ssenariylari ishlab chiqildi.

Prognoz modelini tuzish uchun shahar va qishloq aholisi soni, hududlardagi kvartira (uy)lar soni, migratsiya saldosi, avtomobil transportida tashilgan yo‘lovchilar soni, faoliyat yuritgan kichik korxonalar soni, tabiiy o‘sish dinamikasi orasidagi farq, shifokorlar soni, o‘qituvchilar soni, avtomobil transportida tashilgan yuk hajmi, va tashilgan yuklar hajmini o‘tgan yilga nisbatan tahlil qilinib, urbanizatsiyaning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlar tanlab olindi (3.4-jadval).

7 -jadval.

Korrelyatsion bog‘liqlik matritsasi[32]

ko‘rsatkichlar	**shahar aholisi ortishi**	**qishloq aholisi**	**kvartiralar**	**migratsiya**	**yo‘lovchilar**	**Korxonalar**	**tabiiy o‘sish**	**shifokorlar .**	**yuk hajmi**	**o‘qituvchilar**	**yuk ortishi**
shahar aholisi ortishi	1,00	-0,08	0,62	0,03	0,50	0,67	0,36	0,65	0,58	0,29	-0,01
qishloq aholisi	-0,08	1.00	0.41	-0.30	-0.36	-0.06	0.83	-0.29	-0.17	0.80	0.04
kvartiralar	0,62	0.41	1.00	-0.42	0.48	0.77	0.74	0.58	0.65	0.70	0.02
migratsiya	0,03	-0.30	-0.42	1.00	-0.05	-0.28	-0.42	-0.16	-0.13	-0.37	-0.04
yo‘lovchilar	0,50	-0.36	0.48	-0.05	1.00	0.74	0.01	0.83	0.89	0.08	0.16
korxonalar	0,67	-0.06	0.77	-0.28	0.74	1.00	0.38	0.83	0.80	0.42	-0.06
tabiiy o‘sish	0,36	0.83	0.74	-0.42	0.01	0.38	1.00	0.14	0.19	0.90	0.00
shifokorlar soni	0,65	-0.29	0.58	-0.16	0.83	0.83	0.14	1.00	0.84	0.21	-0.11
yuk hajmi	0,58	-0.17	0.65	-0.13	0.89	0.80	0.19	0.84	1.00	0.27	0.19
o‘qituvchilar	0,29	0.80	0.70	-0.37	0.08	0.42	0.90	0.21	0.27	1.00	0.01
yuk ortishi	-0,01	0.04	0.02	-0.04	0.16	-0.06	0.00	-0.11	0.19	0.01	1.00

Korrelyatsion tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, hududlarda uy-joy qurilishining jadallashuvi, avtomobil transportida yo‘lovchilar va yuk tashishning ortishi, faoliyat

[31] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.

[32] Ilova ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

yuritayotgan kichik korxonalarning ko‘payishi va tibbiyot shifokorlari sonining ortishi shaharlarda yashovchi aholining ko‘payishiga xizmat qiladi.

Modelda multikollinearlikning oldini olish maqsadida o‘tkazilgan tahlildan ko‘rish mumkinki, korrelyatsion aloqadorlik darajasi yuqori (0,65) bo‘lgan shifokorlar soni kvartiralar soni, avtomobilda tashilgan yuk va yo‘lovchilar hamda faoliyat ko‘rsatgan kichik korxonalar bilan ham yuqori korrelyatsiya ko‘rsatkichiga ega.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, tibbiyot shifokorining ortishi hududda tibbiy muassasalarning rivojlanishi, yo‘l infratuzilmasining yaxshilanishi va natijada avtomobil transportida yuk va yo‘lovchi tashishning ortishi bilan birgalikda sodir bo‘ladi. Tibbiy muassasalar yonida savdo va xizmat ko‘rsatishning boshqa turlari ham rivojlanadi. Bu esa, o‘z navbatida kichik korxonalar sonining ortishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, tibbiy muassasalar uchun sifatli energiya ta’minoti mavjud bo‘lishi zaruriy shartlardan ekani inobatga olinsa, tibbiy xizmatlar rivojlangan hududda energiya ta’minoti ham boshqa hududlarga nisbatan yaxshiroq, degan fikrga kelish mumkin. Shularni inobatga olib, modelni tuzishda shifokorlar ko‘rsatkichi infratuzilma va xizmatlarning rivojlanishini ifodalaydi, degan farazga asoslangan holda, bu ko‘rsatkich bilan yuqori korrelyatsion bog‘liqlikka ega ko‘rsatkichlar tushirib qoldirildi. Tabiiy o‘sish darajasi va o‘qituvchilar soni ko‘rsatkichlari o‘rtasida ham yuqori korrelyatsion bog‘liqlik (0,90) mavjudligi sababli o‘qituvchilar soni ko‘rsatkichi tushirib qoldirildi.

Tadqiqotda Qashqadaryo viloyati hududlari kesimidagi panel ma’lumotlar asosida qat’iy (*fixed*) va tasodifiy (*random*) ta’sir modellari tuzildi.

Hausman testi panel ma’lumotlar modellarida tasodifiy ta’sirlar va fiksirlangan ta’sirlar (fixed effekt va random effekt) orasidan qaysi biri mosligini aniqlash uchun ishlatiladi. Bu test ikki modelning baholangan parametrlarini taqqoslaydi va tasodifiy ta’sir modelining aniqligi uchun kerakli shartlar bajarilayotganini tekshiradi.

$$H = (\beta_{FE} - \beta_{RE})' \, [Var(\beta_{FE}) - Var(\beta_{RE})]^{-1} \, (\beta_{FE} - \beta_{RE}) \qquad (4)$$

Bu yerda:

- β_{FE}: fixed effekt modelining parametrlarining bahosi.
- β_{RE}: random effekt modelining parametrlarining bahosi.
- $Var(\beta_{FE})$ fixed effekt modelidagi parametrlar dispersiyasi
- $Var(\beta_{RE})$: random effekt modelidagi parametrlar dispersiyasi

Durbin-Watson testi (DW testi) — bu statistik test bo‘lib, uning asosiy maqsadi avtokorrelyatsiyaning (serial korrelyatsiya) mavjudligini aniqlashdir. Avtokorrelyatsiya — bu modeldagi xatoliklarning bir-biriga bog‘liqligini ifodalaydi. Agar xatoliklar orasida korrelyatsiya mavjud bo‘lsa, bu modelning ishonchliligi va natijalarining to‘g‘riligi haqida shubhalar tug‘dirishi mumkin.

$$DW = \sum(e_t - e_{t-1})^2 / \sum e_t^2 \qquad (5)$$

bu yerda: - e_t: t vaqt bo‘yicha qoldiq (xatolik),

- e_{t-1}: t-1 vaqt bo‘yicha qoldiq,
- n: kuzatuvlar soni.

Durbin-Watson statistikasining qiymati 0 dan 4 gacha bo‘lishi mumkin:

$d \approx 2$ — qoldiqlar o‘rtasida avtokorrelyatsiya yo‘q yoki juda kichik.

d < 2 — qoldiqlar o‘rtasida ijobiy avtokorrelyatsiya (ya’ni, keyingi xatolik avvalgi xatolik bilan bog‘liq).

d > 2 — qoldiqlar o‘rtasida salbiy avtokorrelyatsiya (ya’ni, keyingi xatolik avvalgi xatolik bilan teskari bog‘liq).avtokorrelyatsiya (xatoliklar o‘rtasidagi bog‘liqlik) mavjudligini aniqlash uchun ishlatiladi, ayniqsa regressiya modellarida. Bu test, xatoliklar o‘rtasida boshqa darajadagi korrelyatsiya (ya'ni, birinchi darajadan yuqori bo‘lgan avtokorrelyatsiya) mavjudligini tekshirishda qo‘llaniladi. Breusch-Godfrey testi asosan lineer regressiya modelida foydalaniladi va Durbin-Watson testidan farqli o‘laroq, yuqori darajali avtokorrelyatsiyani ham aniqlay oladi.

$$Yt = \beta_0 + \beta_1 X_1 t + \beta_2 X_2 t + ... + \beta_k X_k t + \varepsilon_t \quad (6)$$

Bu yerda:

- Y_t: Bog‘liq o‘zgaruvchi (t vaqt bo‘yicha natija),
- X_{1t}, X_2t, ..., X_kt: Mustaqil o‘zgaruvchilar (t vaqt bo‘yicha kuzatilgan qiymatlar),
- β_0: Intercept (chiziqning Y o‘qi bilan kesishgan nuqtasi),
- β_1, β_2, ..., β_k: Mustaqil o‘zgaruvchilarning regressiya koeffitsiyentlari (ularning ta’sirini ifodalaydi),
- $\boldsymbol{\varepsilon_t}$**:** Xatolik (modeldan farq qiladigan qoldiq qiymat).

8-jadval

Shahar aholisi soni o‘zgarishi prognoz modeli natijalari[33]

Model formulasi	shahar aholisi ortishi ~ tabiiy o‘sish + migratsiya + vrachlar soni + tashilgan yuklar ortishi + xatolik				
Hausman testi	χ^2: 4-darajali erkinlikda 1.7759, **p qiymat** = 0.7769 alternativ gipoteza: bitta model mos kelmaydi				
ma’lumotlar	muvozanatli panel: n = 14, T = 13, N = 182				
Omillar	**koeffitsientlar**	**standart xatolik**	**z-qiymat**	**Pr(>|z|)**	
Konstanta	0.063715	0.289970	0.2197	0.82608	
tabiiy o‘sish (x_1)	0.271902	0.045130	6.0248	$1.693*10^{-9}$	***
migratsiya (x_2)	0.414871	0.069296	5.9870	$2.138*10^{-9}$	***
shifokorlar (x_3)	1.478737	0.257387	5.7452	$9.182e*10^{-9}$	***
yuk hajmi (x_4)	0.104493	0.048235	2.1663	0.03029	*
model xulosasi	**Kvadratlarning umumiy yig‘indisi**: 67.756 **Kvadratlarning qoldiq yig‘indisi**: 44.303 $\mathbf{R^2}$: 0.34614 tortilgan R^2: 0.33136 χ^2: 4-darajali erkinlikda 93.6982, **p qiymat**: < 2.22e-16				

8-jadvalda keltirilgan model xulosasidan barcha omillarning ta’siri 95 foizdan yuqori statistik ahamiyatli darajada ekanini ko‘rish mumkin. Modelda xatoliklar o‘rtasidagi avtokorrelyatsiyani tekshirish uchun Durbin-Watson testidan foydalanildi. Durbin-Watson soni 0 dan 4 gacha bo‘lgan qiymatlarni qabul qilib, qiymatning 2 ga yaqinligi xatoliklar o‘rtasida avtokorrelyatsiya darajasining pastligi, ya’ni tanlangan modelning maqsadga muvofiqligini anglatadi. Bizning tadqiqotimiz natijalari 95 foizlik ahamiyatlilik darajasida DW = 1.7768 ni tashkil etib, bu model haqida ijobiy xulosa beradi. Tadqiqotda, shuningdek, xatoliklar o‘rtasidagi avtokorrelyatsiyani

[33] Muallif ishlanmasi.

tekshirish uchun foydalaniladigan Breusch-Godfrey/Wooldridge testi o‘tkazildi. Bu testda p qiymatning 0,05 dan katta bo‘lishi ijobiy, ya’ni avtokorrelyatsiya yo‘qligini bildiradi. Bizning misolimizda test natijasi p qiymatning 0,7348 ekanini ko‘rsatib, modelning maqsadga muvofiqligini yana bir bor tasdiqladi.

Shunday qilib, shahar aholisi soni prognoz modeli quyidagicha ifodalandi:

$$y = 0{,}272x_1 + 0{,}415x_2 + 1{,}479x_3 + 0{,}104x_4 + 0{,}064$$

Tadqiqotda ishlab chiqilgan shahar aholisi soni prognoz modeli asosida Qashqadaryo viloyatida 2030-yilgacha urbanizatsiya darajasi o‘zgarishining prognoz ssenariylari ishlab chiqildi (6-rasm).

1-ssenariyda (pessimistik[34]) ta’sir etuvchi omillar so‘nggi 14 yillik ko‘rsatkichlar asosida shakllantirildi. So‘nggi 14 yillikda tabiiy o‘sish o‘rtacha 3,5 foizni tashkil etib, viloyatga ko‘chib kelgan va ko‘chib ketganlar orasidagi farq o‘rtacha -6175 kishini tashkil etgan. Bu davrda tibbiyot shifokorlari soni o‘sishining o‘rtacha ko‘rsatkichi 3,1 foiz bo‘lib, avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi yiliga o‘rta hisobda 1,8 mln tonnadan ortib borgan. Bu o‘rtacha miqdorlar 2030-yilgacha davom etadi, deb faraz qilingan. Pessimistik ssenariy natijalari viloyatda urbanizatsiya darajasi 2026-yilda 42,72 foiz, 2028-yilda 42,64 foiz va 2030-yil yakuniga 42,54 foizgacha pasayishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Bu holat viloyatda urbanizatsiya darajasini oshirish uchun qo‘shimcha chora tadbirlar amalga oshirish, xususan, rivojlanayotgan hududlarda aholi zichligini oshirish, hududlarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha ratsional qarorlar qabul qilinishini talab etadi.



6-rasm. Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya darajasining prognoz ssenariylari[35]

2-ssenariyda (inersion[36]) tabiiy o‘sish darajasi o‘rtacha 3,0 foizni, viloyatga ko‘chib kelgan va ko‘chib ketganlar orasidagi farq 14 yilda 2 barobarga kamaygan, (-3087) kishini tashkil etgan. Ssenariyga ko‘ra, shifokorlar soni o‘sishining o‘rtacha

[34] Pessimistik ssenariy — bu istiqbolda past yoki salbiy natijalarga olib kelishi mumkin bo‘lgan prognoz bo‘lib, ehtimoliy qiyinchilik va muammolar, tahdidlar yuqori darajada inobatga olib tuziladi

[35] Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

[36] Inersion ssenariyda uzoq vaqt davomidagi rivojlanish tendensiyalari asosida mavjud holatning davom etishi taxmin qilinadi.

ko‘rsatkichi 5,0 foiz bo‘lib, avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi yiliga o‘rta hisobda 3,0 mln.tonnadan ortib boradi. Bu o‘rtacha miqdorlar 2030-yilgacha davom etadi, deb faraz qilingan. Inersion ssenariy natijalari viloyatda urbanizatsiya darajasi 2026-yilda 42,81 foiz, 2028-yilda 42,83 foiz va 2030-yil yakuniga kelib 42,86 foizga yetishi prognoz qilindi. Urbanizatsiya darajasini oshirish uchun viloyatdan malakali kadrlarning chiqib ketishini oldini olishga qaratilgan yuqori daromadli ishlarni ko‘paytirish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash, infratuzilma holatini yaxshilash orqali tibbiy va transport xizmatlarini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

3-ssenariyda (optimistik[37]) tabiiy o‘sish darajasi o‘rtacha 3,0 foizni, viloyatga ko‘chib kelgan va ko‘chib ketganlar orasidagi farq so‘nggi 14 yilda 3 barobar kamaygan, (-2058) kishini tashkil etadi. Optimistik ssenariyga ko‘ra, tibbiyotda shifokorlar soni o‘sishi o‘rtacha 8,0 foiz, avtomobil transportida tashilgan yuklar hajmi o‘rtacha yiliga 5,0 mln.tonnani tashkil etadi. Optimistik ssenariy asosida hisoblangan o‘rtacha miqdorda 2030-yilgacha davom etadi va natijada mintaqa urbanizatsiya darajasi 2026-yilda 42,94 foiz, 2028-yilda 43,12 foiz va 2030-yil yakuniga qadar 43,35 foizga yetishi prognoz qilindi. Optimistik ssenariyga mos ravishda viloyatda tabiiy o‘sish, boshqa hududlarda ishlayotgan malakali kadrlarni qaytarish uchun rag‘bat mexanizmini ishlab chiqish, kadrlar salohiyatini oshirish, innovatsion ishlanmalar va tajribalarni barcha sohalarda keng joriy qilish, infratuzilma imkoniyatlarini yaxshilash, aholi savodxonligini oshirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish kabi kompleks tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi.

[37] Optimistik ssenariy – rivojlanishdagi ijobiy o‘zgarishlar va imkoniyatlarga asoslangan prognoz. Unda ijobiy natijalarga tez erishiladi.

XULOSA

1. Transformatsiya iqtisodiyoti – bu murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib uning natijasida sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, xizmatlar va boshqa sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Iqtisodiy o‘zgarishlar jarayonida shaharlar markaziy ahamiyatga ega bo‘lib, shaharlarni rejalashtirish tizimi samarali bo‘lishi uchun, ularni yangi iqtisodiy voqeliklarini hisobga olgan holda rivojlantirilishi zarur. Shaharlarni rivojlanishi ularda istiqomat qilayotgan aholi sonini ortishi va tabiiyki, urbanizatsiya jarayonlarini kuchayishi bilan chambarchas bog‘liq.

2. Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar tashlasak, Xitoy so‘nggi yillarda jadal urbanizatsiyani boshdan kechirib, millionlab odamlar qishloqlardan shaharlarga ko‘chib o‘tdi. Bu yangi shaharlarni rivojlantirish va mavjudlarini kengaytirish, shuningdek, barqaror urbanizatsiyani rag‘batlantirishga qaratilgan turli siyosat va tashabbuslarni amalga oshirishga olib keldi. Yaponiyaning urbanizatsiya darajasi 57 foizni tashkil etuvchi global urbanizatsiya darajasidan ancha yuqori. So‘nggi o‘n yil ichida Yaponiyada urbanizatsiya darajasi taxminan 91,9 foizga barqarorlashdi. Singapurda konsepsiya rejasi va bosh reja shaharlarni rivojlantirishdagi eng muhim hujjatlar hisoblanadi. Yaponiyaning rejalashtirish ustidan markazlashtirilgan nazoratni cheklab qo‘yish va vakolatlarni prefekturalar va munitsipalitetlarga topshirish tajribasini inobatga olib, O‘zbekiston shaharlari bosh rejalarini ishlab chiqishni bosqichma-bosqich shahar ma’muriyatiga o‘tkazish, shuningdek, shaharlarni rivojlantirishda va urbanizatsiya darajasini oshirishda jamoatchilik ishtirokini ta’minlash bo‘yicha Singapur mexanizmini qo‘llash samarali natijalarga erishish imkonini yaratadi.

3. O‘zbekistonning faqatgina Toshkent shahri, Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida urbanizatsiya darajasi mamlakat ko‘rsatkichidan (51 foiz) yuqori bo‘lib, boshqa hududlarda shaharlarda yashovchi aholi qishloq aholisiga nisbatan kamligicha qolmoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya darajasi 43 foizga ham yetmaydi. Respublika hududlaridagi shaharlarda xizmat ko‘rsatish bo‘yicha korxonalar Toshkent shahri bilan qiyoslaganda sust rivojlanmoqda. Toshkent shahri bu tarmoqda dominant ustunlikka ega bo‘lib, xizmatlar tarmog‘i YaIMga qo‘shilgan qiymatining 1/5 qismidan ortig‘ini ta’minlaydi. Shuningdek, aksariyat hududlarda migratsiya saldosi manfiy bo‘lib, asosan, Toshkent shahrining jozibadorligi urbanizatsiya darajasini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, mamlakat bo‘yicha jami shahar aholisining 16 foizdan ortig‘i Toshkent shahrida istiqomat qilib, bu raqamlar tarkibiy o‘zgarishlar orqali hududlarda urbanizatsiya darajasini oshirish zaruratidan dalolat beradi.

4. O‘zbekistonda tarixiy shakllanish, iqtisodiy-tashkiliy mexanizm va infratuzilmaga investitsiyalarning yetishmasligi tufayli shaharlarni zamonaviy konsepsiyalar asosida rivojlantirishda muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, aksariyat shaharlar kabi O‘zbekiston shaharlari ham sanoat korxonalari atrofida barpo etilib, aholi sonining ortishi va shaharlarning yon-atrofga kengayishi sababli hozirda ularning joylashuvi sanitar muhofaza zonalari talablariga javob bermaydi. Bu korxonalar shaharlarning iqtisodiy bazasini tashkil etishi, infratuzilma obyektlari va muhandislik kommunikatsiya tizimlari bilan ta’minlanishdagi muammolar O‘zbekiston

shaharlarida barqaror shahar konsepsiyasini qo‘llashga to‘sqinlik qilmoqda. Shuningdek, 2019-yilda tasdiqlangan “Aqlli shahar” texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi asosida Toshkent viloyatining ma’muriy markazi qurilishi rejalashtirilgan bo‘lsada, 2 yil o‘tib bu loyiha “Nurafshon business city” shaklida qayta tashkil etilgan. Shunday ekan, shaharni aynan bitta konsepsiya asosida rivojlantirishni kichikroq shaharlar uchun qo‘llash konsepsiya tamoyillarining barchasiga amal qilishga imkon yaratib, infratuzilma xarajatlari jihatidan ham amalga oshirish imkoniyati yuqori bo‘ladi. Katta va yirik shaharlar uchun esa shaharning tumanlarini ma’lum yo‘nalishga ixtisoslashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

5. Hududlar uchun iqtisodiy rayonlashtirish, aholi yashash punktlarini tashkil etish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bosh rejalar asosida amalga oshirib, bosh rejalari sanoqli loyiha institutlari tomonidan ishlab chiqiladi. Hujjatlar mahalliy byudjet hisobidan har 10 yilda yangilanib, bu cheklangan byudjetga ega hududlar uchun qimmatga tushadi. Shuningdek, rejalashtirish hujjatlari asosan arxitektura yechimlarini qamrab olib, iqtisodiy rejalashtirish bilan uyg‘unligi yetarlicha ta’minlanmagan. Yaponiyaning rejalashtirish ustidan markazlashtirilgan nazoratni cheklab qo‘yish va vakolatlarni prefekturalar va munitsipalitetlarga topshirish tajribasini inobatga olib, O‘zbekiston shaharlari bosh rejalarini ishlab chiqishni bosqichma-bosqich markazsizlashtirish choralarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

6. O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sish sur’ati sust bo‘lgan Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo, Surxondaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida iqtisodiyot tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining ko‘payishi natijasida aholi daromadlarining ortishi ularda shaharlardagi nisbatan qulay sharoitlarda yashashga rag‘bat uyg‘otmoqda. Biroq mazkur hududlardagi shaharlar iqtisodiyotning drayveri sifatidagi vazifasini bajarishda oqsamoqda. Andijon, Xorazm, Toshkent, Buxoro, Jizzax, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikalarida esa shaharlarda sanoat va xizmatlar sohasida yangi korxonalar va ish o‘rinlari yaratilishi urbanizatsiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday ekan, hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hududlarning ixtisoslashuv darajasini oshirish, sanoat va maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali iqtisodiyot tarkibini takomillashtirishga ustuvorlik berish lozim. Shuningdek, tarkibiy o‘zgarishlar natijasida urbanizatsiyaning rivojlanishi va shaharlarda sanoat va xizmatlar sohasida yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hududlar jozibadorligini oshirib, aholining yashash va munosib mehnat sharoitlariga erishish maqsadida o‘z hududidan tashqaridagi boshqa rivojlangan shaharlarga intilishining oldini oladi.

7. So‘nggi yillarda Qashqadaryo viloyati YaHM o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, uning mamlakat YaIMdagi hissasi kamayib bormoqda. Mazkur holat viloyat iqtisodiyotining mamlakat iqtisodiyotiga nisbatan sekinroq o‘sayotganini ko‘rsatib, viloyat iqtisodiyoti tuzilmasi bilan bevosita bog‘liq. 2019-2023-yillarda mamlakat iqtisodiyoti tarkibida qishloq xo‘jaligining ulushi 2,3 foiz bandga qisqargan sharoitda Qashqadaryo iqtisodiyotida tarmoqning YaHMdagi ulushi 41,1 foizdan 41,9 foizgacha ortgan. Shuningdek, viloyatning respublikaning 14 hududi orasida sanoat mahsulotlari hajmi bo‘yicha 8-o‘rin, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi bo‘yicha 6-o‘rinda ekani viloyatda sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

8. Urbanizatsiya darajasi infratuzilmaning holati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu jarayonning muvaffaqiyati hududiy resurslar va xizmatlar sifati bilan belgilanadi. Mamlakatdagi aholi xonadonlarining tabiiy gaz bilan ta’minlanishi 4% dan

oshmaydigan 9 ta tumandan 4 tasi (Qamashi, Yakkabog‘, Kitob, Chiroqchi) Qashqadaryoda joylashgan, viloyatning ko‘plab hududlarida oqova suv tarmog‘ining yo‘qligi esa sanoatdagi qiymat zanjiri uzluksizligini ta’minlashga to‘siq bo‘lmoqda. Ushbu hududlarda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish urbanizatsiya sur’atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

9. Viloyatda kichik va o‘rta shaharlar aholisi soni yirik shaharlarga qaraganda tezroq o‘smoqda, bu yirik shaharlardagi iqtisodiy va ijtimoiy jozibadorlik yetishmasligini anglatadi. Jumladan, Qarshi shahri respublika va viloyat bo‘ysunuvidagi 32 ta shaharlarda ko‘rsatilgan jami xizmatlarning atigi 1,8 foiz ulushini ta’minlab, ko‘plab ma’muriy markazlardan ancha orqada qolmoqda. Shahrisabzda bu ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 0,3 foizni tashkil etib, 32 ta shahar orasida 23-o‘rinda. Qarshi va Shahrisabz shaharlari iqtisodiy markaz sifatida rolini kuchaytirish uchun xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish, transport-logistika infratuzilmasini yaxshilash hamda atrofdagi tumanlarni iqtisodiy integratsiyaga jalb qilish muhimdir.

10. Qarshi shahri 295,6 ming nafar aholisi bilan Qashqadaryo viloyatining yirik, Shahrisabz shahri 147,2 ming nafar aholisi bilan katta shahri hisoblanib, mavjud salohiyatga qaramay, Qarshi va Shahrisabz shaharlarida xizmatlar sohasidagi imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmagan. O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda ko‘rsatilgan jami xizmatlarning 62,1 foizi respublika va viloyatga bo‘ysunuvchi 32 ta shaharlarning hissasiga to‘g‘ri keladi. Mazkur shaharlarda ko‘rsatilgan jami xizmatlarning 1,8 foizi Qarshi, 0,3 foizi, Shahrisabz shahrida amalga oshirilgan. Bu ko‘rsatkichlar Qarshi va Shahrisabzda shahar jozibadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligidan dalolat beradi. Xususan, bu yo‘nalishda Shahrisabzda shahrida yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratish, malakali kadrlarni hududda ishlashini rag‘batlantirish yoshlar bandligini ta’minlash va uy-joy kommunal xo‘jaligi faoliyatini takomillashtirish kabi chora-tadbirlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Qarshi shahrida ijtimoiy infratuzilma tarkibidagi ta’lim sohasi viloyatda istiqbolli yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

11. Qashqadaryo viloyatining Koson, Muborak va Nishon tumanlari kabi yuqori urbanizatsiyalashgan hududlarini sanoat markazlariga aylantirish urbanizatsiya jarayonlarini yanada jadallashtiradi. Ushbu hududlarda urbanizatsiya darajasi yuqori bo‘lgani bois, mavjud infratuzilmani mustahkamlash va zamonaviy sanoat korxonalarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, Muborak va G‘uzordagi neft-gaz va kimyo sanoati kabi tarmoqlarni rivojlantirishga ustuvor e’tibor qaratish, texnologik yangilanishlarni amalga oshirish, korxonalarga malakali mutaxassislar va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali bu hududlarda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish mumkin.

12. Ko‘kdala va Dehqonobod kabi urbanizatsiya darajasi past hududlarda qishloq xo‘jaligi va kichik sanoat klasterlari barpo etish hududlar jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlariga mos bo‘lgan qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarini rivojlantirish bilan birga, kichik sanoat klasterlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu hududlar infratuzilmasini rivojlantirish, xususan, gaz, elektr energiyasi, suv bilan ta’minlash darajasini oshirish orqali aholi turmush darajasini yaxshilash va urbanizatsiya darajasini oshirishga erishish mumkin.

13. Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ va Qamashi tumanlarida turizm faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish bu tumanlardagi shaharchalar iqtisodiyotining o‘sishiga xizmat qiladi. Mazkur hududlar infratuzilmasini yaxshilash, xususan, yo‘llar, mehmonxonalar, xizmat ko‘rsatish obyektlari kabi infratuzilmalarni yaratish, mavsumiy turizmni barqarorlashtirish va xizmat sifatini oshirishga qaratilgan loyihalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Shuningdek, Yakkabog‘, Qamashi, Ko‘kdala, Chiroqchi kabi xalqaro va davlat ahamiyatiga molik yo‘llar kesib o‘tgan serqatnov hududlarda yo‘l bo‘yi xizmatlarini rivojlantirish ish o‘rinlari yaratish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, turizm va tijorat imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yo‘l bo‘yi xizmatlarini rivojlantirish orqali shaharlar atrofidagi kichik aholi punktlari bilan bog‘lanib, urbanizatsiya jarayonida aglomeratsiyalarning shakllanishini rag‘batlantiradi va bu joylarga odamlarni jalb qilishga yordam beradi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.03/27.09.2024.I.55.03 ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ПО ИМЕНИ АБУ РАЙХАН БЕРУНИ

КАРШИНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАХИМОВА МАДИНА ШУХРАТ КИЗИ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ГОРОДСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМИРУЮЩЕЙСЯ ЭКОНОМИКИ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

08.00.12 — Региональная экономика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ургенч — 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2023.4.PhD/Iqt.3584.

Докторская диссертация выполнена в Каршинском государственном техническом университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме)) на веб-сайте диссертационного совета (www.urdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Эркаева Гульбахор Панжиевна** кандидат экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Рузметов Бахтияр** доктор экономических наук, профессор
	Муллабаев Бахтиёржон Бултурбаевич доктор экономических наук, доцент
Ведущая организация:	Термизском государственном университете.

Защита диссертации состоится «____» _____ 2025 года в _____:_____часов на заседании Научного совета при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни DSc.03/27.09.2024.I.55.03 Адрес 220200, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (998-62) 224-6700; факс: (998-62) 224-6700; e- mail: info@urdu.uz

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни (регистрационный номер_____). Адрес 220200, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (998-62) 224-6700; факс: (998-62) 224-6700; e- mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.

(протокол рассылки №_____ от «_____» _____ 2025 года)

И. С. Абдуллаев
Председатель научного совета, по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Т. Ж. Рахимов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD., доцент

Б. Рузметов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день более половины населения мира проживает в городах. Если в 1800 году лишь 2% населения жило в городских условиях, а в 1950 году — 30%, то к 2050 году ожидается увеличение этой доли до 68%.[38] Согласно статистике, ежедневно в города переселяется около 180 тысяч человек, а в развивающихся странах — около 60 миллионов ежегодно. Наибольший уровень урбанизации наблюдается в Северной и Латинской Америке, странах Карибского бассейна, Европы и Океании, тогда как в Азии этот показатель не превышает 50%, а в Африке — 43%.

С ростом урбанизации усиливается роль городов как двигателей экономического роста. В современных условиях трансформации экономики концентрация населения в городах способствует экономическому развитию, создавая до 80% мирового ВВП и способствуя снижению уровня бедности. Вместе с тем усиливающееся социальное неравенство и ухудшение экологической ситуации становятся негативными последствиями быстрой урбанизации. В связи с этим возрастает значение научных исследований, направленных на совершенствование систем городского планирования и разработку подходов к управлению урбанизацией как фактором регионального развития.

Согласно Указу Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № PF-158 «О стратегии “Узбекистан – 2030”»[39], предусматривается повышение уровня урбанизации с 51% до 60%. Это требует глубинных структурных изменений и повышения доли сектора услуг в экономике городов. За последние 10 лет численность городского и сельского населения Узбекистана увеличилась на 20,7%, при этом уровень урбанизации оставался на уровне 50–51%. При этом около 1/5 всей добавленной стоимости сектора услуг приходится на город Ташкент, где зарегистрировано свыше 16% городского населения страны, что подчеркивает необходимость повышения уровня урбанизации в регионах страны за счет структурных реформ.

В сравнении с Ташкентом, следующими по уровню урбанизации регионами являются Андижанская, Ферганская и Наманганская области. В Кашкадарьинской области уровень городского населения не достигает 43%. Более того, за 2019–2023 годы уровень урбанизации здесь снижался, а доля региона в ВВП страны сократилась с 6,0% до 5,5%. Несмотря на общее снижение доли сельского хозяйства в ВВП страны на 2,3%, в экономике области сохраняется его приоритет: доля агросектора выросла с 41,1% (2019 г.) до 41,9% (2023 г.). Эти данные свидетельствуют о наличии проблем в сфере городского развития Кашкадарьинской области и подтверждают научную и практическую значимость исследования по совершенствованию системы городского планирования в данном регионе.

---

[38] https://www.worldbank.org/en/topic/urbandevelopment/overview

[39] Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № PF-158 «О Стратегии “Узбекистан – 2030”»

